



ABDULLA QAHHOR ASARLARIDA INSONIY TUYG'ULAR ULUG'LANISHI

Sharibjonova Xurshidaxon Anvarjon qizi

Namangan davlat universiteti

Filologiya fakulteti

adabiyotshunoslik yo'nalishi

magistranti

mail: xurshida123456@inbox.uz

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6529421>

MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 01-may 2022

Ma'qullandi: 10- may 2022

Chop etildi: 14- may 2022

KALIT SO'ZLAR

asar, badiiy talqin, hikoya, obraz, fazilat, "Ming bir jon", Mastura, vafo, sadoqat, buyuk so'z san'atkori.

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Abdulla Qahhor asarlarining o'ziga xos xususiyatlari, ularda ifodalanayotgan insoniy fazilatlar, "Ming bir jon" hikoyasining badiiy xususiyatlari, qahramonlar tavsifi haqida ma'lumot beriladi.

Inson dunyoga kelibdiki, u butun umri davomida turfa xil sinovlarga duch keladi. Mana shu sinovlarni yengib o'tishda unga doimo bir sodiq do'st ko'makdosh, yelkadosh bo'ladi. U shunday do'stki, og'ir kuningizda hamdard, mushkulotli damingizda sizga maslahatgo'y, to'g'ri yo'lga yo'llaguvchi maslakdosh, hatto siz unutib qo'ysangiz-da sizdan aslo ranjmaydigan, aksincha doimo siz bilan eng yaqin bo'lguvchi sodiq do'st - bu kitob.

Kitoblar inson hayotida har doimo muhim o'rinni egallaydi. Kitobxon ularni mutolaa qilarkan, ulardan doimo o'zi uchun hayot saboqlarini o'rganib boradi. Men ham buyuk, mohir so'z tarjimoni Abdulla Qahhor hikoyalarini o'qir ekanman ulardan har safar, har vaqt buyuk bir hayot haqiqatni anglab boraman. Uning hikoyalari tili sodda va ravonligi bilan ajralib turadi. Abdulla Qahhor hikoyalari

orasida "Ming bir jon" hikoyasi alohida o'rin tutadi.

Hikoya sujeti yozuvchi tilidan hikoya qilib beriladi. Hikoya bahor ta'rifi bilan boshlanadi. Hikoyani bu tarzda boshlanishi ham bejizga emas. Kasalxonadagi bemor uchun uchun kasallikdan sog'ayish xuddi izg'irin qishdan xorigan tabiatning qaytadan ko'z ochishiga qiyoslanadi. Kasalxonadagi bemorlardan so'z ketar ekan Mirrahimovga Masturaning bardoshi haqida gapirib o'tadi. Xonadagilarga hamshira uni o'n yildan beri kasal ekanligi, ovqatni ham yeyolmasligi, qorniga quyishlarini, eri Akramjonni doimo unga qarashini aytib o'tadi. Xonadagilar bemor ayoldan ham ko'ra unga shuncha yildan buyon mehribonlik bilan qarayotgan Akramjonni ko'rishga qiziqishadi. Bemorni ko'rgani borgan xonadoshlar orasidan Hoji bobo Masturaning o'lik tanasini ko'rib o'zini yo'qotib qo'yadi, hamshiraning imosi



bilan xonadan chiqib ketadi. Shu holatda ham Mastura o'zini yo'qotmaydi, bu holatdan ham kulgili vaziyat hosil qilib, ularga qiziqarli voqealarni aytib berib kuldiradi. Mirrahimov va xonadoshi uning bardoshi va Akramjonning vafosi-yu mehriга qoyil qolishadi. Yozuvchi kasalxonadan chiqqandan so'ng ham ularning taqdiri bilan qiziqadi, kasalxonaga ularni izlab boradi, u borganda Masturani operatsiyaga olib kirib ketishayotgan bo'lishadi va Akramjon uni tanimaydi, Mastura esa ko'rmaganlikka oladi, keyinchalik o'zi ataylab shunday qilganini agarda taniganda unga dalda berguvchi so'zlarni aytishini bilib tanimaganlikka olganligini aytadi. Hikoya so'nggida Masturaning bardoshi, sabri va Akramjonning vafo-yu sadoqati evaziga Mastura butunlay sog'ayib ketadi.

Hikoya bosh qahramonlari Mastura hamda Akramjon timsollari orqali umid, hayotga muhabbat, sadoqat, vafo tuyg'ulari kuylanadi. Har bir inson hayotda turli xil qiyinchiliklarga duch keladi, ba'zida hayotning sinovlariga qo'l siltagimiz, undan ko'z yumgimiz keladi, turfa xil mushkulotlar oldida esankirab qolamiz, lekin qalbimiz tubida bir narsa mash'ala kabi bizni yashashga, ularga qarshi mardonavor kurashishga chorlaydi. Bu tuyg'u umid deb nomlanadi, u har qanday holatimizda ham bizda bo'ladi, boy insonda ham bir burda nonga zor bo'lgan insonda ham mana shu tuyg'u doimo u bilan birga bo'ladi, uni doimo hayot uchun kurashishga chorlayveradi. Umid tuyg'usi bilan sabr tuyg'usi uyg'unlashganda inson asta-sekinlik bilan o'z maqsadlariga, orzulariga erisha boshlaydi. Hikoyada mana shu ikki beg'ubor tuyg'u Mastura obrazida uyg'un holatda yorqin, go'zal chizgilar bilan tasvirlab beriladi. Mastura

o'n yildan beri dard bilan kurashib keladi, shu yillar mobaynida dardi og'irlashib, to'shakka mixlanib qoladi, lekin bu uning irodasi, sabri va hayotga yashashga muhabbatini aslo so'ndira olmaydi. Kasalxonada Mastura tobut voqeasini ham so'zlab beradi. Mastura to'shakka mixlanib yotganida, ukasining yig'laganini ko'rib ko'chadagilar Mastura o'lib qolibdi deb uning uchun tobut ko'tarib kelishadi, bu holatdan barcha hang-u mang bo'lib qoladi. Mastura shu lahzalarda ham umidini aslo so'ndirmaydi, bu holat Masturaning tilidan shunday so'zlab beriladi "Hatto tildan qolgan kasalning rozilik tilashib qaragani ham dunyodan umid uzgani emas, balki rozilik tilashgani hali erta dermikin degan umid bilan dunyoda tenggi yo'q, timsoli yo'q zo'r umid bilan qaragani deb bilaman". Uning obrazida hushchaqchaqlik, hayotni sevis, uning har bir soniyasidan lazzat olib yashash tuyg'ulari tasvirlanadi. Hikoyadagi yana bir obraz Akramjon obrazi ham muhim ahamiyatga ega. Akramjon Mastura bilan turmush qurganiga bir yil bo'lmasidan Mastura dardga chalinib yotib qoladi, yillar davomida bemor ayolini sevib ardoqlaydi, eng og'ir kunlarida unga yelkadosh bo'ladi, doimo uni qo'llab-quvvatlaydi. Hikoyani tahlil qilar ekanman, Mastura obrazidagi shukronalik tuyg'usi ham alohida ahamiyatga egaligini ta'kidlab o'tmoq lozim. U shuncha dard-u xastaliklarini chekib ham biror marta ham bu dardlardan nolimaydi, unga kulib qaraydi; Ba'zida vujudimizda ozgina dard paydo bo'lsa yoki biror qattiqroq nish kirkudek bo'lsa darrovda noliy boshlaymiz, yillab to'shakka mixlanib yotgan yoki qandaydir nuqsoni bor insonlarni ko'rib ulardan qocha boshlaymiz, ularni ko'rib-ko'rmaganlikka olamiz, tilimizning uchida



shukr deb qo'yamiz xolos, aslidachi qalb ko'zimizni ko'r ekanligini ko'ra olmaymiz. Hikoyani o'qir ekanmiz hikoya qahramonlari timsolida mana shunday insoniy tuyg'ularni his qila boshlaymiz, ularni xuddi yonimizdagidek tasavvur qilamiz. Yozuvchining asl maqsadi ham shunda, hikoya qahramonlarining holatlarini, hikoyaning har bir detallarini o'quvchining qalbiga chuqur singdira olishdir.

Hikoyalarni yaratar ekan yozuvchi har bir holat va vaziyatda oddiy so'zlardan foydalanmay, aksincha xalqona ibora va ko'chma ma'noli so'zlardan unumli foydalanadi (yengchadan boshini chiqarib turgan sichqondek ko'chaga qarb o'tirgan edi hayot to'la ko'zlari o'lik yuziga jon kirgizganday bo'ldi, Masturaning bir daqiqalik oromi uchun o'ng ko'zini o'yib berishga ham tayyor edi). Bu hikoyaning ta'sirchanligi va obrazlilikini yanada oshiradi.

Dunyoda shunday ulkan xazinalar borki, foydalanilgani sari kamayib boraveradi, lekin yana bir shunday xazina borki undan qancha foydalanmaylik, uning la'l-u javohirlari aslo kamaymaydi, aksincha ma'naviyatimizni oshirib, dunyoqarashimizni kengaytirib boraveradi. Kitob mutolaa qilar ekanmiz, oqni qoradan, yaxshini yomondan, haqni botildan ajrata boshlaymiz, milliy ma'naviyatimizni, o'zligimizni anglay boshlaymiz.

Kitobxon asar mutolaa qilar ekan, ana shu asardan ma'lum bir estetik zavq va tarbiya oladi, undan nimanidir o'rganishga harakat qiladi. Har bir kitob o'quvchi uchun tarbiya va odob maskani bo'lib xizmat qilishi lozim.

A.Qahhor hikoyalari qisqa, lo'nda, sodda bo'lsa-da, uning badiiyligi, estetik qiymati, tarbiyaviyligi yuksak darajada.

Hikoya qahramonlarining hayotini o'qib beixtiyor ko'zingizga yosh keladi, ba'zi qahramonlari ustidan esa miriqib kulasiz. Hikoya qahramonlar oddiy insonlar; oddiy insonlarning turmush-tarzi, hayoti, muammolari hikoyalarida sodda va ravon tilda so'zlab beriladi. Uning "Anor", "O'g'ri", "Bemor" hikoyalarini o'qiganimizda, inson hayoti oddiy bir qog'oz pulchalik yoki bir hayvonchalik emasligini ko'rib beixtiyor yig'laysiz.

"Bemor" hikoyasida inson hayoti, taqdiri oddiy bir qog'oz pulchalik qadri yo'q ekanligi hikoyadagi yigirma besh so'm pul tavsifida yaqqol ko'zga tashlanadi. "O'g'ri" hikoyasida esa Qobil bobo bir ho'kiz uchun chekkan sarson - sargardonliklari ko'zingizga yosh keltirsa, amaldorlarning poraxo'rliklari, oddiy insonlarni odam o'rnida ko'rmay, ularni masxara qilishlari dilingizni xufton qiladi. Hikoyalarni o'qib, o'zingizcha ularning hayotini hal qila boshlaysiz, muammolariga yechim izlaysiz. Uning hikoyalari bizga mana shu oddiy insonlarni sevishni, ularni qadrlashni, xalqimizga xos bo'lga insoniy tuyg'ularini qadriga yetishni o'rgatadi. Yozuvchi Shukrulloning "O'zbeklar" hikoyasida oddiy insonlari hayotini ko'rib-ko'rmaganlikka olar edik deyilgan holatlarini o'rganishga, o'ylashga chorlaydi, ularni sevishga-ardoqlashga undaydi. Yon-atrofimizdagi insonlarga nisbatan e'tiborliroq mehrliroq bo'lishga chorlaydi, o'zi aslida inson ekanligimizni unutib qo'ymaslikka umid, mehr-muhabbat tuyg'ulari bilan yashashga undaydi. Shunday asarlarni mutolaa qilar ekanmiz, ma'naviyatimizni, milliy o'zligimizni oshirib boraveramiz.

To'g'ri biz hozir axborot asrida yashaymiz. Axborot asrida har bir narsa-buyum axborotlashgan, nimaniki



izlamaylik bir zumda topa olamiz, izlagan kitobimizni mutolaa qila olishimiz mumkin, lekin bu kitobxonga kitoblarni varaqlab o`qish zavqini bera olmaydi, kitobni o`qib topgan estetik zavqingizni topa olmaysiz, uning zarhal varaqlarida ko`z yoshlaringiz qoladi, o`zingiz uchun ma`qul bo`lgan varog`ini alohida belgilab olasiz, uni har gal qo`lga olganingizda ajib bir olamga tushib qolgandek bo`lasiz. Bunday zavq-u shavqni insonga faqatgina kitob bera oladi. Shuning uchun ham yurtboshimiz kitobxonlikka yuksak darajada e`tibor qaratmoqdalar. Yurtimizning har bir go`shalarida

kitobxonlik tadbirlari o`tkazilmoqda, kitoblarimiz yangidan-yangi tahrirda chop qilinmoqda va ular har bir ta`lim muassasalariga bepul yetkazib berilmoqda. mana shunday sa`y-harakatlardan unumli foydalanmog`imiz, o`quvchilar o`rtasida kitobga muhabbat tuyg`ularni shakllantirmog`imiz lozim. Chunki kitob o`qigan, mutolaa qilgan o`quvchi o`zining to`g`ri yo`lini tanlay oladi, oq-u qorani ajrata oladi, Vataniga, yurtiga sodiq farzand bo`lib yetishadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A.Qahhor. "Ayb kimda". Toshkent. 2018. 113-122 sahifalar
2. Ziyonet.uz
3. kh-davron.uz